



THE MANIFESTATION OF KHARIJITE IDEAS IN THE DOCTRINES OF CONTEMPORARY DESTRUCTIVE MOVEMENTS

Ahmadjonov Muhammadyokub Sodiqjon oglu

International Islamic Studies Academy of Uzbekistan

1st year master's student in Islamic studies

Tel: +998 87 903 07 77

Email: Muhammadyoqubahmadajanov652@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288856>

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2026

Accepted: 18th May 2026

Online: 19th May 2026

KEYWORDS

Kharijism, destructive movements, takfir, radicalism, extremism, ideological immunity, terrorism, Ahl al-Sunnah, theological threats.

ABSTRACT

This article analyzes the emergence of Kharijism as one of the earliest destructive political-theological movements in Islamic history, its ideological foundations, and its connection with contemporary extremist and takfiri movements. The study examines how the doctrines of early Kharijites such as takfir, rebellion against legitimate authority, justification of violence, and superficial interpretation of religious texts have reappeared in modern radical organizations. The article also highlights the scholarly responses of Ahl al-Sunnah scholars against such ideologies and emphasizes the importance of developing ideological immunity among youth.

ПРОЯВЛЕНИЕ ИДЕЙ ХАРИДЖИЗМА В ДОКТРИНАХ СОВРЕМЕННЫХ ДЕСТРУКТИВНЫХ ДВИЖЕНИЙ

Ахмаджонов Мухаммадқуб Содиджон оғлу

Международная академия исламоведения Узбекистана

Студент 1-го курса магистратуры по исламоведению

Тел.: +998 87 903 07 77

Электронная почта: Muhammadyoqubahmadajanov652@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20288856>

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2026

Accepted: 18th May 2026

Online: 19th May 2026

KEYWORDS

Хариджизм, деструктивные течения, такфир, радикализм, экстремизм, идеологический иммунитет, терроризм, ахлю-с-сунна, религиозные угрозы.

ABSTRACT

В данной статье анализируются причины возникновения хариджизма как одного из первых деструктивных политико-религиозных течений в истории ислама, его основные идеологические принципы, а также его связь с современными такфиристскими и экстремистскими движениями. В ходе исследования на основе научных источников раскрывается, что такие идеи ранних хариджитов, как такфир, восстание против законной власти, оправдание насилия и поверхностное толкование религиозных текстов, находят отражение в идеологии современных радикальных группировок. Также рассматриваются научные подходы ученых



ахлю-с-сунна в противодействии подобным идеям и подчеркивается важность формирования идеологического иммунитета у молодежи.

ZAMONAVIY DESTRUKTIV OQIMLAR DA'VOLARIDA XORIJIYLIK G'OYALARINING AKS ETISHI

Ahmadjonov Muhammadyoqub Sodiqjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

islomshunoslik yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Tel: +998 87 903 07 77

Email: Muhammadyoqubahmadjanov652@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.2028856>

ARTICLE INFO

Received: 13th May 2026

Accepted: 18th May 2026

Online: 19th May 2026

KEYWORDS

Xorijiylik, destruktiv oqimlar, takfir, radikalizm, ekstremizm, fikriy immunitet, terrorizm, ahli sunna, aqidaviy tahdidlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada islom tarixida paydo bo'lgan ilk siyosiy-aqidaviy buzg'unchi oqimlardan biri bo'lgan xorijiylikning shakllanish sabablari, asosiy g'oyaviy tamoyillari hamda uning zamonaviy destruktiv va takfiri-ekstremistik oqimlar mafkurasi bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida dastlabki xorijiylikning takfir, siyosiy isyon, zo'ravonlikni oqlash va diniy matnlarni yuzaki talqin qilish kabi qarashlari bugungi radikal guruhlar mafkurasida qayta namoyon bo'layotgani ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ahli sunna val jamoa ulamolarining ushbu g'oyalarga qarshi ilmiy yondashuvlari hamda yoshlarda fikriy immunitetni shakllantirish zarurati asoslab beriladi.

KIRISH

Islom tarixi davomida musulmon jamiyati bir qator siyosiy, aqidaviy va mafkuraviy sinovlarga duch kelgan. Ana shunday sinovlarning eng xavflilaridan biri sifatida xorijiylik harakati alohida o'rin egallaydi. Mazkur oqim hijriy 38-yilda Ali ibn Abu Tolib va Moviya ibn Abu So'fyon o'rtasida yuz bergan "Siffin" voqeasidan keyin tarix sahnasiga chiqdi. Dastlab ular adolat va Qur'on hukmini talab qiluvchi guruh sifatida ko'ringan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan musulmonlarni takfir qilish, jamiyatdan ajralish va zo'ravonlikni oqlash kabi

xavfli g'oyalarni ilgari sura boshladilar. Ularning mashhur shiori "Hukm faqat Allohnikidir" (*إِن الْحُكْمَ إِلَّا لِلَّهِ*) bo'lsa-da, ushbu shior noto'g'ri talqin va siyosiy radikalizm vositasiga aylantirilgan edi.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, xorijiylik muayyan tarixiy davr bilan cheklanib qolmagan. U turli davrlarda turli nom va shakllarda qayta namoyon bo'lib kelgan. Bugungi kunda ham o'zlarini "haq yo'lida kurashuvchi", "sof islom tarafdori" sifatida ko'rsatuvchi ayrim ekstremistik va terroristik oqimlar faoliyatida xorijiylikka xos bo'lgan mafkuraviy belgilar kuzatiladi. Xususan,



hukumatlarni kufirda ayblash, jamiyatni johiliyatda deb hisoblash, musulmonlarni osongina takfir qilish hamda zo'rvonlikni "jihod" sifatida talqin etish kabi qarashlar qadimgi xorijiyularning mafkuraviy merosiga o'xshashligi bilan e'tiborni tortadi.

Oradan qariyb o'n to'rt asr vaqt o'tgan bo'lsa-da, dastlab Haruro qishlog'ida shakllangan bu tafakkur bugungi zamonaviy radikal guruhlar mafkurasida ma'lum darajada davom etayotgani kuzatilmog'da. Ularning tashqi ko'rinishi, siyosiy usullari va texnologik imkoniyatlari o'zgargan bo'lsada, asosiy g'oyaviy negiz mutaassiblik, takfir va zo'rvonlikni diniy asoslash deyarli o'zgarmagan.

Mazkur tadqiqot ishida dastlabki xorijiyularning paydo bo'lish sabablari, asosiy aqidaviy qarashlari va ularning bugungi zamonaviy takfiriy-ekstremistik oqimlar bilan mafkuraviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, tarixiy xorijiylik va zamonaviy radikal harakatlar o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlar ilmiy manbalar asosida yoritiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv davrida diniy ekstremizm va terrorizm xalqaro xavfsizlikka tahdid solayotgan dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmog'da. Shu sababli uning tarixiy ildizlarini o'rganish, mafkuraviy manbalarini aniqlash va unga qarshi ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni fikriy-ruhiy o'xshashlikning sababi nimada? Barcha davrlardagi taqvo niqobidagi radikallashuv, hukumatni va jamoatni kofirga chiqarish, fikriy-siyosiy zo'rvonlikka diniy asosda o'zini haqli deb qarash, qandaydir yagona bir manbadan oziq olayotganga o'xshaydi. Ushbu maqolada dastlabki xorijiyul g'oyasining asl shakli va ularning bugungi takfiriy-terrorchi oqimlarga ko'chgan iziga nazar solinadi. Ularning shiorlari o'zaro qiyoslanadi. Farqlar va o'xshashliklar ajratib ko'rsatiladi¹.

Tadqiqot davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, bugungi destruktiv oqimlarning ideologik o'zagi to'la-to'kis yangi emas. Ularning qurol-yarog'i zamonaviy, ammo asos g'oyalari hijriy I asrning oxirgi choraklaridan davom etib kelayotgan destruktiv an'analarni takrorlaydi.

ASOSIY QISM

Xorijiyul (خوارج) xavorij, (على) bog'lovchisi bilan kelsa: "Ajrilib chiqqanlar" yoki "ga qarshi chiqqanlar" degan ma'nolarni anglatadi. Islom tarixchisi Ibn Jarir Tabariy o'zining mashhur "Tarix al-umam va-l-muluk" asarida ushbu oqimning shakllanish tarixini batafsil bayon qilib bergan. Voqealar tartibi qisqacha shunday: 37/657-yilda Siffin jangidan keyin hakamlik masalasi o'rta qo'yildi. Ali (r.a.) buni qabul qildi. Haruro qishlog'ida to'plangan bir guruh kishilar: "Hukm qilish faqat Allohga xos" (إِنَّ الْحُكْمَ لِلَّهِ) degan shior bilan xalifalikka qarshi chiqdilar².

¹ Shahrisoniy. Al-Milal va-n-nihal. – J. 1. / Ahmad Fahmiy Muhammad tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992. – B. 114-115.

² Ibn Jarir Tabariy. Tarix al-umam va-l-muluk. – J. 5. / Muhammad Abu-l-Fazl Ibrohim tahqiqi. – Qohira: Dor al-ma'orif, 1968. – B. 63-82.



Shior zohiran tog'ri. Kimning Alloh hakam bo'lishini inkor qilishga jur'ati yetadi? Ammo, mohiyatan bu shior hakamlik masalasini siyosiy jihatdan hal qilishni kofirlik deb elon qilish edi. Ali (r.a.) ularga javoban quyidagi mashhur jumlaning aytgan: "Haq kalima, lekin u bilan botil iroda qilinmoqda" (*حق يراد بها باطل* (كلمة). Ayni shu jumlada xorijiylikning butun adashishlariga qisqa, lekin aniq tashxis qo'yilgan.

Abdulqohir Bag'dodiy "al-Farq bayna-l-firoq" asarida Nahravon jangidan keyin xorijiylikning asosiy oltiyetti firqaga bo'linganini, ularning eng mashhurlari Azoriqa, Najadot, Iboziya va Sufariya ekanini bayon qiladi. Har bir firqa o'ziga xos radikallik darajasiga ega edi. Masalan, Nofe' ibn Azroq boshchiligidagi azoriqa guruhi o'ziga qo'shilmaganlar, hatto o'z bolalari hamda xotinlarini ham kufirda ayblab, ularning qonini muboh deb e'lon qilgan edi³.

Bunday qarashning qaerda kelganligini tushunish uchun xorijiylik ideologiyasining quyidagi asosiy tamoyillarini ajratib olish kerak.

Birinchi tamoyil – gunohi kabira sohibi kofirdir. Xorijiylik uchun katta gunoh qilgan musulmon – musulmon emas. U dinidan chiqqan va murtad hisoblanadi.

Ikkinchi tamoyil – takfir huquqi har kimga ochiq. Ularning tushunchasida har bir musulmon o'z aqli va o'z tushunchasi doirasida boshqalarni kofirga chiqarishga haq-huquqlidir. Ularning nazdida bu masalada imom, mujtahid, yoki ilm ahlining ijmosiga muhtojlik yo'q.

Uchinchi tamoyil – amal imonning asosi. Bu tamoyilda amal – imonning sharti emas, balki aynan uning o'zagini tashkil qiladi. Ya'ni, namoz o'qimagan yoki zakot to'lamagan kofir hisoblanadi. Demak, ularning aqidalarida har bir katta gunoh imonni bekor qiladi.

To'rtinchi tamoyil – jamoatdan ajralish tog'ri. Rasululloh (s.a.v.)ning mutavotir hadislarida: musulmonlar jamoasi (*جماعة المسلمين*) va uning imomiga itoat qilishni buyurganlar. Xorijiylik bu amrni o'z qarashlariga muvofiq ko'rilmaganda inkor qilishadi. Har qanday holatda ular zolim deb hisoblangan imomga qarshi chiqishni vojib deb biladilar.

Beshinchi tamoyil – kuch ishlatish yo'li asosiy vosita. Avvalgi to'rtala qarash majmui zo'ravonlikka asoslangan targ'ibotni o'z ichiga oladi. Chunki, kim kofir bo'lsa, uning qoni muboh, kim zolim imom bo'lsa, uning ishi botil hisoblanadi.

Bu tamoyillarni ko'rib chiqish jarayonida tanish bir holat ko'zga tashlanadi. Bugungi "ISHID", "al-Qoida", O'rta Osiyodagi o'nlab nomlar bilan tanilgan radikal harakatlarning destruktiv qarashlari – aynan mana shu besh tamoyilning zamonaviy ko'rinishiga o'xshaydi.

Payg'ambar (s.a.v.) xalifa Ali (r.a.)ga Haruro voqeasi sodir bo'lishidan avval ularning sifatlarini bayon qilib berganlar:

Abu Said al-Xudriy (r.a.) rivoyat qilgan hadisda: "Bu qavm Qur'on o'qiydilar, ammo ularning halqumlaridan nariga o'tmaydi. Ular dindan xuddi o'q yoydan uchib chiqqani kabi chiqib ketadilar. Hadisning bu nuqtasiga diqqat

³ Abdulqohir Bag'dodiy. Al-Farq bayna-l-firaq. – Bayrut: Dor al-Ofoq al-jadida, 1977. – B. 73-74.



qaratilsa: Qur'on o'qishadi, ammo uning mohiyatiga yetmaydilar:

حَدَّثَنَا مُحَمَّدُ بْنُ الْمُثَنَّى، حَدَّثَنَا عَبْدُ الْوَهَّابِ، حَدَّثَنَا
أَبُو بَرْزَةَ، عَنْ مُحَمَّدٍ، عَنْ أَبِي سَعِيدٍ الْخُدْرِيِّ - رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُ
يَخْرُجُ نَاسٌ مِنْ قَبْلِ: - عَنِ النَّبِيِّ صَلَّى اللَّهُ عَلَيْهِ وَسَلَّمَ قَالَ
الْمَشْرِقُ وَيَقْرَأُونَ الْقُرْآنَ لَا يُجَاوِزُ تَرَاقِيهِمْ يَمْرُقُونَ مِنْ
الَّذِينَ كَمَا يَمْرُقُ السَّهْمُ مِنَ الرَّمِيَةِ، ثُمَّ لَا يَعُودُونَ فِيهِ حَتَّى
سَيِّمَاهُمْ قَالَ: قِيلَ مَا سَيِّمَاهُمْ يَعُودُ السَّهْمُ إِلَى قُوقِهِ
التَّسْبِيئِ⁴ أَوْ قَالَ التَّخْلِيقِ.

Boshqa bir sahih hadisda ularning sifatlari yanada yaqqol ochiladi: (نواصيهم محلقة) ularning sochlari qirib olingan. (يقتلون أهل الإسلام ويدعون أهل الأوثان) Ular butparastlarni qo'yib, islom ahlini o'ldiradilar. Ya'ni ularni ko'proq mo'min-musulmonlarning amallaridan ayb topish qiziqtiradi. Bu sifatlar bugungi oqimlarda ham mavjud⁵.

Muhammad (s.a.v.) sahobalaridan Ammor ibn Yosir (r.a), Habbob ibn Arot (r.a), Huzayfa ibn Yamon (r.a) kabi sahobalar bu bashoratni Ali (r.a) zamonida o'z ko'zlari bilan ko'rishganlari haqida aytiladi. Ali (r.a) Haruro jangidan oldin safdoshlariga ularning ichida qo'li nuqsonli bo'lgan bir kishi borligi haqida xabar berdilar. Haruro jangidan keyin o'lganlar orasidan o'sha nuqsonli kishini topdilar.

Bu noto'g'ri qarashlar keyinchalik boshqa zamon, boshqa muhit va mintaqalarda ham qayta-qayta uyg'ondi.

Tadqiqoti davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, hozirgi takfiriy harakatlarning oldingilardan jiddiy farqli jihatlari yo'q. Ularning qarashlarini tarixda o'tgan xorijiyularning kalom-falsafadagi ba'zi qarashrining o'rniga zamonaviy-siyosiy ko'rinish kiritishlari

bilan ifodalash mumkin. Quyidagi asosiy tamoyillar esa o'zgarmagan:

Birinchi o'xshashlik – musulmon jamiyatini kofirga chiqarish g'oyasi. Hozirgi oqimlarning aksar qismi shu qarashni ilgari suradilar.

Ikkinchi o'xshashlik – ularning aksar qismini yoshlar tashkil qilishi va ilmiy saviyaning yuqori emasligi. Tarixdagi xorijiyularning ham katta qismi yoshlar edi. Ibn Kasir o'z tafsirida Muhammad (s.a.v)ning ular haqida: “yoshlari kichi, tafakkuri sayozlar” (حدثاء (الأسنان، سفهاء الأحلام), deb ularning sifatlarini zikr etadilar. Bugungi kunda ham aksar radikallar 18-30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. K.Olimovning 2019-yilgi tadqiqotiga ko'ra, O'zbekistonda destruktiv oqimlarga aldangalarning 67 foizini 18-28 yoshdagi yoshlar tashkil qiladi⁶.

Uchinchi o'xshashlik – “nass”ni ya'ni ilohiy matnlarni mohiyatiga yetmasdan zohiran tushunish. Xorijiyul Qur'on oyatlarini kontekstsiz, tarixiy-fiqhiy misollarsiz, mujtahid ulamolarning tushuntirishlarisiz o'z holicha tarjima qilib, amaliyotga tatbiq etadilar. Shuning uchun ham Muhammad (s.a.v.) Qur'on ularning halqumidan o'tmasligini bashorat qilganlar. Bugungi takfiriy guruhlar ham xuddi shunday “Hukm Allohga xos”, “Kofirga dushmanlik”, “Jihad farz” kabi oyat parchalarini ajratib olib, sharhsiz, izohsiz amaliyotga tatbiq etishga urunadilar.

To'rtinchi o'xshashlik – “zohiriy” taqvodorlik va o'zlarini dindor ko'rsatish. Bu haqida quyidagi hadis zikr

⁴ Buxoriy. Al-Jome' as-sahih. 7562-hadis.

⁵ Muslim. Al-Jome' as-sahih. 1066-hadis.

⁶ K.Olimov. Destruktiv diniy oqimlarning ideologik manbalari va ularga qarshi kurashning nazariy-metodologik asoslari. – Toshkent, 2019. – B. 84-91.



qilinadi: “Shunday bir qavm paydo bo‘ladiki, ularning namozlarini ko‘rib, o‘z namozingizni, ularning ro‘zalarini ko‘rib esa o‘z ro‘zangizni arzimas deb hisoblaysiz” (*تَحْقِرُونَ صَلَاتَكُمْ مَعَ صَلَاتِهِمْ*, *وَصِيَامَكُمْ مَعَ صِيَامِهِمْ*)⁷. Bugun ham aynan shunday, destruktiv guruh ta‘sir doirasiga tushgan yoshlar odatda jamiyat hayotida go‘yoki eng ko‘p namoz o‘quvchi, eng ko‘p ro‘za tutuvchi, tillarida Qur‘on, ammo islomning asl mohiyatidan uzoq kishilardir. Ko‘rinishidan taqvodor, botinida esa – takfir g‘oyalari yashirin.

Ahli sunna val jamoa – Moturidiy va Ash‘ariy maktablari – ilk davrlardan oq xorijiylikka qarshi kurashish g‘oyasini ilgari surganlar. Ularning asosiy qarashlari Biror kim imon kalimasini aytgan bo‘lsa, amalidagi nuqsonlari sababli uni kofirga chiqarmaganlar.

Tahoviy o‘zining mashhur aqida matnida: “Biz gunohi sababli qibla ahlidan bo‘gan biror kimsani, modomiki u gunohini halol sanamas ekan, uni kofirga chiqarmaymiz” (*وَلَا تُكْفِرُ أَحَدًا مِنْ أَهْلِ* *الْقِبْلَةِ بِذُنُوبِ مَا لَمْ يَسْتَحِلَّهُ*). Bu jumla takfiriy yondashuvlarga qarshi to‘g‘on bo‘lib, ahli sunnaning asliy tamoyilni ifoda qiladi⁸.

Ushbu qarash zamiridagi asl mantiqni alloma Bobartiy o‘z sharhida shunday tushuntiradi: “Imon – qalbdagi tasdiq va tildagi iqror. Amal – imonning kamoli, lekin sharti emas. Shuning uchun katta gunoh sohibi – fosiq, ammo musulmon. Shu nuqtada xorijiylik va mo‘taziliylik bilan ahli sunna val jamoaning farqi ochiq oydinligi ko‘zga tashlandi”.

Turkistoniy o‘zining “al-Aqida at-Tahoviya”ga sharhida bu masalaga quyidagicha yondoshadi:

“Xorijiylik bilan mo‘taziliylik amalsiz imon bo‘lmaydi, gunohi kabira sohibi tavba qilmasidan oldin o‘ladigan bo‘lsa, do‘zaxda abadiy qoladi, deyishadi. Ushbu har ikki mazhabning qarashlari kitob va sunnatga zid. Ushbu fikrlar bugungi takfiriy ideologiyaning aqidaviy jihatdan botill ekanligiga dalil bo‘ladi”⁹.

Bu masalani Yusuf Qarzoviy o‘zining “Zohirat al-g‘uluv fi-t-takfir” asarida yanada chuqurlashtirgan. Asarda aytilishicha: Hozirgi takfir balosi – islom tarixida bo‘lmagan hodisa emas, balki u xorijiylik va ayrim radikal guruhlardan o‘tib kelgan deyish tog‘ri bo‘ladi”¹⁰.

Hozirgi tadqiqotlarda bir kichik kamchilik ko‘zga tashlanadi. Destruktiv oqimlarga qarshi kurash ko‘pincha siyosiy-huquqiy yoki psixologik-ijtimoiy tomondan yoritiladi. Bu jihatlar o‘z o‘rnida kerak, ammo unutilayotgan bir jihat bor – bu fikriy immunitet masalasi hisoblanadi.

Fikriy immunitet – kishining o‘zi mustaqil haq va botilni ajrata olish qobiliyatidir. U o‘z kuchi bilan, o‘z aqli bilan, o‘z qalbi bilan to‘g‘ri-noto‘g‘rini his qila olishi lozim. Bunday immunitet tarbiyaviy, ilmiy va madaniy jarayonning natijasi hisoblanadi.

Bugun afsuski ko‘rilayotgan holat shuki: destruktiv g‘oyalarni tarqatuvchi kishilarning asosiy auditoriyasi ilm-ma‘rifati chuqur bo‘lmagan, hadis va fiqh qoidalaridan xabardor bo‘lmagan

⁷ Buxoriy. Al-Jome‘ as-sahih. 3610-hadis

⁸ Abu Ja‘far Ahmad ibn Muhammad Tahoviy. Al-Aqida at-Tahoviyya. – Qohira: Dor as-Salom, 2001. – B. 287.

⁹ O‘sha manba. – B. 294.

¹⁰ Yusuf Qarzoviy. Zohirat al-g‘uluv fi-t-takfir. – Qohira: Maktaba al-Vahba, 2010. – B.39.



kishilardir. Ularning qalbida diniy g'ayrat bor, ammo bu g'ayratni to'g'ri o'zanga solish kerak bo'ladi.

Yuqoridagi fikrga qo'shimcha sifatida aytish mumkinki, tarbiyaviy va ilmiy ishlarning o'zi hamma muammolarni hal qilmaydi. Ular bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik omillar ham muhim. Lekin, ilmiy-g'oyaviy immunitet asosiy unsur hisoblanadi. U bo'lmasa, boshqa barcha ishlar befoyda ketadi.

Shu nuqtadan kelib chiqilsa, bugungi oliy va o'rta diniy ta'lim tizimida ahli sunna val jamoa aqidasi, uning xorijiylik, mo'taziliylik, mujassima va murji'a firqalaridan tafovutlarini barcha nozik nuqtalarigacha o'rganish va o'rgatish davriy zarurat bo'lib qolmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida uch muhim nuqtaga e'tibor qaratish kerak:

Birinchisi: hozirgi destruktiv-takfiriy oqimlar tarixiy xorijiylikdan farqli tuzilma emas. Ularning g'oyalari o'zagi ayni eski tamoyillarni takrorlaydi:

gunohi kabira sohibi kofir, takfir huquqi har kimga ochiq, imomga, jamoatga qarshi chiqish halol va tog'ri, kuch ishlatish yo'li asosiy vosita. Bu besh tamoyil bugun ham – hijriy I asrdagi kabi destruktiv oqimlar uchun g'oyaviy asoslar bo'lib qolmoqda.

Ikkinchisi: Muhammad (s.a.v.)ning xorijiylik haqidagi bashoratlari bugungi holatning ham ayni ifodasidir: "Qur'on o'qishadi, ammo u ularning halqumlaridan pastga o'tmaydi". Zohiriy taqvodorlik – asl diyonatning kafolati emas.

Uchinchisi: bu kasallikka qarshi asosiy vosita - ilmiy-g'oyaviy immunitet hisoblanadi. Uni shakllantirish uchun yoshlarga ilm nurini singdirish, otabobolarimiz tayangan aqida ilmini sodda tarzda o'rgatish, klassik islom merosi bilan tanishtirish juda muhim. Bu borada esa Imom Moturidiy, Abul Muin Nasafiy, Taftazoniy va Bobartiy kabi buyuk ulamolarning asarlari – e'tiqod bobida misoli bir mustahkam qal'a bo'ladi.

References:

1. Ibn Jarir Tabariy. Tarix al-umam va-l-muluk. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1987.
2. Abulqohir Bog'dodiy. Al-Farq bayna-l-firaq. – Bayrut: Dor al-Ofoq al-jadida, 1977.
3. Abul Hasan Ashariy. Maqolat al-islamiyyin va ixtilaf al-musollin. – V:1. – Wiesbaden: Franz Steiner Verlag, 1980. – S. 86.
4. Muhammad Buxoriy. Al-Jome' as-Sahih.
5. Muslim ibn Hajjoj. Sahihi Muslim.
6. Ibn Kasir. Tafsir al-Qur'an al-Azim. – Bayrut: Dor al-Fikr, 1999.
7. Muhammad Abdu as-Salam Faraj. Al-Faridah al-Ga'ibah. – Qohira:nashriyot berilmagan, 1981.
8. Joas Wagemakers. A Quietist Jihadi: The Ideology and Influence of Abu Muhammad al-Maqdisi. – Cambridge University Press, 2012.
9. Abu Muhammad Maqdisiy. Millat Ibrahim. – 1985.
10. Abu Ja'far Tahoviy. al-Aqidah at-Tahoviya. – Qohira: Dor as-salom, 2001.
11. Akmaliddin Bobartiy. Sharh al-Aqida at-Tahoviya.
12. Yusuf Qarzoviy. Zohirat al-g'uluv fi-t-takfir. – Qohira, 2010.



13. Abu Mansur Moturidiy. Kitob at-tavhid. – Bayrut: Dor al-Kutub al-Ilmiya, 1970.
14. Abul Mu'in Nasafiy. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. – Qohira: al-Maktaba al-Azhariya.
15. K.Olimov. O'zbekistonda yoshlar va destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet masalalari // Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2019. – B.91.